

**TERMINOLOGY RELATED TO ISLAMIC LAW AND IMPORTANT SOURCES OF THE FIELD****Salokhiddin U. Kurbonov***PhD student**High school of Arabic language**Tashkent State University of Oriental Studies**E-mail: _qurbansalah@gmail.com**Uzbekistan, Tashkent***ABOUT ARTICLE**

Key words: Islamic law, fiqh, terminology, Quran, Hadith, Ijma', Qiyas, jurisprudential sources, Arabic language, legal terms.

Received: 06.03.25

Accepted: 08.03.25

Published: 10.03.25

Abstract: This article analyzes the formation, development and main sources of Arabic terminology in the field of Islamic law (fiqh). Islamic law terms are derived from the texts of the Quran and Hadith, and later improved by jurisprudential schools and scholars. The article analyzes the meaning of Islamic legal terms, their historical development process and their place in jurisprudential sources. It also discusses the main sources of Islamic law - the Quran, Sunnah, Ijma' and Qiyas, as well as jurisprudential dictionaries and legal treatises. The study offers important methodological approaches for studying and fully understanding the terminology of Islamic law.

ISLOM HUQUQI BILAN BOG'LIQ TERMINOLOGIYA VA SOHANING MUHIM MANBALARI**Saloxiddin O'. Qurbonov***Doktorant**Arabshunoslik oliy maktabi**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti**E-mail: _qurbansalah@gmail.com**O'zbekiston, Toshkent***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: islom huquqi, fiqh, **Annotatsiya:** Mazkur maqolada islom terminologiya, Qur'on, Hadis, Ijmo', Qiyos, huquqi (fiqh) sohasidagi arabcha

fiqhiy manbalar, arab tili, huquqiy istilohlar.

terminologiyaning shakllanishi, rivojlanishi va uning asosiy manbalari tahlil qilinadi. Islom huquqi terminlari Qur'on va Hadis matnlaridan kelib chiqqan holda, keyinchalik fiqhiy mazhablar va ulamolar tomonidan takomillashtirilgan. Maqolada islom huquqiy istilohlarining ma'no tahlili, ularning tarixiy rivojlanish jarayoni hamda fiqhiy manbalardagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, islom huquqiga oid asosiy manbalar – Qur'on, Sunnat, Ijmo' va Qiyos hamda fiqhiy lug'atlar va huquqiy risolalar muhokama qilinadi. Tadqiqot islom huquqi terminologiyasini o'rganish va mukammal anglash uchun muhim metodologik yondashuvlarni taklif qiladi.

ТЕРМИНОЛОГИЯ, СВЯЗАННАЯ С ИСЛАМСКИМ ПРАВОМ, И ВАЖНЫЕ ИСТОЧНИКИ В ЭТОЙ ОБЛАСТИ

Салохиддин У. Курбанов

Докторант кафедры

Высшая школа арабистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

E-mail: qurbansalah@gmail.com

Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: исламское право, юриспруденция, терминология, Коран, хадисы, иджма, кийас, юридические источники, арабский язык, юридические термины.

Аннотация: В статье анализируется формирование, развитие и основные источники арабской терминологии в области исламского права (фикха). Исламская правовая терминология возникла из текстов Корана и хадисов и впоследствии была усовершенствована юридическими школами и учеными. В статье рассматривается анализ значения исламских юридических терминов, их историческое развитие и их место в источниках фикха. Также будут рассмотрены основные источники исламского права — Коран, Сунна, Иджма и Кийас, а также юридические словари и юридические трактаты. Исследование предлагает важные методологические подходы для изучения и глубокого понимания терминологии исламского права.

Kirish. Har qanday bilim sohasida yangi termin yaratish yoki mavjud terminlarni kerakli o'rinda ishlatishning o'zi ham muhim hisoblanadi. Bir ilmiy sohaning mustaqilligi uning

institutsionallashuvi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu esa maxsus tadqiqot va tahlil sohalari, metodlar, maxsus tushunchalar kabi unsurlarning mavjudligi bilan amalga oshadi. Shu nuqtai nazardan, maxsus tushunchalarni ifodalovchi terminologiya ham bu institutsionallashuvni to‘ldiradigan va boshqa ilmiy sohalardan ajratib turadigan eng muhim omillardan biridir (Osman Şahin, 2009, p.136).

Terminlarning paydo bo‘lishi, tushunchalarning shakllanishi va muammolarning belgilanishi doimo ilmiy fikrning rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Fikrlar va tadqiqotlar chuqurlashgan sari terminlar yanada aniq va aniqroq bo‘ladi. Bu ham bir ilmiy sohaning rivojlanishiga yordam beradi. Masalan, frantsuz tilshunos olimi Pyer Gyurad (Pierre Guiraud) ta’kidlaganidek, “Mavzuini yoki sohasini aniq belgilamagan va terminlariga aniqlik kiritmagan fanlar, shu sohaning mutaxassislari va mutaxassis bo‘lmaganlarni chalkashlikda qoldirishi” ni ta’kidlagan (Guiraud, 1999, p. 15). Institutsionallashuvi davom etayotgan bilimlar, shu sohadagi ilmiy izlanishlar bilan qo‘llab-quvvatlanib, texnik aniqlikka erishish uchun termin yaratishga ehtiyoj sezadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu tadqiqotda islom huquqi terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi turli metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilindi. Tarixiy-tahliliy metod yordamida islom huquqi istilohlarining manbalari va ularning huquqiy tafakkurdagi o‘rni aniqlab berildi. Lisoniy-tahliliy metod orqali huquqiy terminlarning lug‘aviy va istilohiy jihatlari o‘rganildi. Manbashunoslik yondashuvi Qur‘on, Hadis, Ijmo‘, Qiyos hamda fiqhiy lug‘atlar va risolalar asosida terminlarning shakllanishi va rivojlanishiga bag‘ishlandi.

Bundan tashqari, taqqoslama metod orqali turli fiqhiy mazhablarda ishlatilgan terminologik farqlar hamda ularning huquqiy tushunchalarga ta’siri tahlil qilindi. Kontekstual tahlil asosida islom huquqiy istilohlarining dastlabki manbalardagi qo‘llanilishi va ularning zamonaviy huquqiy diskursdagi ahamiyatini ochib berildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, islom huquqi terminologiyasining rivojlanishi muayyan tarixiy, lingvistik va huquqiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning to‘g‘ri talqin qilinishi fiqhiy tushunchalarni aniq anglash va zamonaviy huquqiy muhokamalarni ilmiy asosda yuritish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur metodologik yondashuvlar islom huquqi terminologiyasini chuqur tadqiq qilish va uni zamonaviy ilmiy izlanishlarga tatbiq etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Natijalar. Terminologiyani bilish ajralmas infratuzilma bilimidir. Chunki tegishli sohaning tizim tuzilmasi shu soha terminologiyasi asosida qurilgan. Shuning uchun, masalan, huquqshunoslik fakultetida tahsil olayotgan shaxs huquqiy asos va terminologiya bo‘yicha zarur bilimga ega bo‘lmasa, o‘z sohasini yetarli darajada egallay olmaydi. Qolaversa, har bir fan

sohasida umumiy terminlardan tashqari, o'rganish uchun zarur bo'lgan asosiy terminlar ham mavjud. Bular o'sha fan sohasi egalarining sub'ektiv qarashlari va ongini aks ettiruvchi terminlardir. Ana shu asosiy terminlar orqali biz Abu Hanifa (vafoti 150/767), Molik (vaf. 179/795), Shofiiy (vaf. 204/820) yoki boshqa faqihlar o'rtasidagi tushuncha va tartibdagi farqni tushunishimiz mumkin (Faruk, 1996, p. 193-195.). Shunga ko'ra, islom huquqshunosi o'z sohasida bilimli bo'lishi uchun bir tomondan islom huquqining umumiy shartlarini, ikkinchi tomondan esa mazhablarning o'ziga xos shartlarini bilishi-tushunishi kerak. Biroq, bu terminlarning nimaligi hozircha alohida tadqiqot mavzusi (Sahin, 2009, p. 138).

Islom huquq terminologiyasining shakllanishi. Islom huquqi qisqa vaqt ichida paydo bo'lib, favqulodda darajada rivojlangan va terminologiyasi ham shunga muvofiq rivojlanib, yetilgan. Shundayki, bu holat, Karamanning ta'kidlaganidek, Von Kremer kabi sharqshunos olimlar islom huquqiga Qur'oni karim va hadisdan tashqari ya'ni vahiy jarayonidan ilgari manba paydo bo'lganini qidirishga (Nesefi, 1893, p. 2), ayrimlarini esa islom huquq terminologiyasining o'ziga xosligini savol ostiga olishga olib kelgan (Karaman, 1983, p. 22-23). Terminologiyaning o'ziga xoslik masalasi esa alohida tadqiqot mavzusidir (Sahin, 1977, p. 18).

Ammo bu yerda qisqacha ta'kidlab o'tish kerakki, bizning tadqiqotlarimizdan ko'rinib turganidek, Islom dini faqat tashqi dunyoga qaratilgan bir din sifatida kelmagan, o'ziga xos ijtimoiy loyihasini amalga oshirishda o'z qarshisidagi moddiy va ma'naviy unsurlarga to'la qarshilik ko'rsatmasdan, realistik yondashuv bilan va bosqichma-bosqich joriy etishga harakat qilgan. Bu jarayonda, aslo tasdiqlamagan narsalariga qarshi muqobil yo'l ko'rsatgan, tuzatilishi mumkin bo'lganlarni tuzatib, zarur bo'lganlarni yaratib o'z tizimi va terminologiyasini shakllantirgan. Biroq bu huquq dastlab ma'lum bir doira-auditoriyaga qaratilganligi uchun, ular gapiradigan va o'ylaydigan tilda amalga oshirilgan.

Vahiy davrida huquqiy terminologiyaning qanday shakllanganini yaxshiroq tushunish uchun, avvalo Qur'onning o'ziga xos tuzilishga ega ekaniga ahamiyat qaratish foydali bo'ladi, deb o'ylaymiz. Qur'on – texnik ma'noda – na qonun matni va na fiqh kitobidir. Boshqa bir so'z bilan aytganda, fiqh hukmlari Qur'onning alohida bir bo'limida “bu haromdir, bu haloldir, bu shartnoma shunday tuziladi, shartlari shulardir...” tarzida keltirilmagan, balki hukmlar zaruratga qarab turli so'z va iboralar bilan ifoda etilib, turli suralarga tarqoq holda joylashtirilgan. Shunday qilib, “vahiy davri terminlogiyasi”ni bugungi kunda biz tushungan texnik terminologiya jarayoni asosida o'lchashimiz bo'lmaydi (Sahin, 2009, p. 141). Shunga qaramay, Qur'on va sunnat yuqorida ta'kidlangan yondashuv sababli ba'zi asosiy tamoyillarga e'tibor qaratib, zarurat tug'ilganda o'z mavqeiga mos tarzda terminologiya yaratgan.

Qur'on va Sunnat, avvalo, joriy qilmoqchi bo'lgan yangi tuzimga zid bo'lgan tushunchalarga oid so'zlarni “o'ldirish” (unutish) yo'lini tutgan (Sahin, 2009, s. 141). Buning

oʻrniga, oʻzi joriy qilayotgan yangi tushunchalarni ifoda qilishda eng mos boʻlganini tanlangan. Shu sababli, johiliyat terminologiyasidan shariat maqsadiga mos kelgan soʻzlarni ham olgan.

Arab tilining lugʻat boyligi yetarli boʻlmagan holatlarda, boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlarga nisbatan ham hech qanday qarshi munosabat koʻrsatilmagan. Masalan, Qurʼon “kufri yashirib, iymonini oshkor qilish” tushunchasini juda aniq ifodalash uchun, bir necha joyga kirib-chiqib, qayerga kirib-chiqqani aniq boʻlmagan koʻrshapalak (yarbu) iniga ishora qiluvchi, habash tilidan olingan “نفق” [nafaqa] soʻzidan foydalangan va shu soʻzdan ilgari nomaʼlum boʻlgan “منافق” [munaafiq] lafzini qayta ishlab, termin sifatida yaratgan (Karaman, 1989, s.46). Sunnat esa, Alloh huzurida odamlar uch toifaga ajralishini ifodalash uchun “roʻyxat-qaydnoma” maʼnosini anglatadigan fors tilidan kirib kelgan “” [diyvaan] soʻzini ishlatgan. Bu soʻz keyinchalik, Hazrati Umar davrida davlat ishlarida huquqiy termin sifatida qoʻllanilgan.

Qurʼon, termin bilan tushuncha oʻrtasida toʻliq ravshan bogʻliqlik boʻlishiga juda katta eʼtibor bergan. Biroq, noaniqlik boʻlgan holatlarda, jamiyatning odatlangan terminlari oʻrniga, tushunchalar bilan kurashish asosiy tamoyil boʻlgan. Shu sababli, taqiqlangan narsalarga oid terminlar, oʻsha taqiqlangan tushunchalarni eng yaxshi ifodalaganligi sababli, tushuncha maydoniga tegmasdan, oʻz holicha ishlatilgan. Boshqa masalalarda ham mavjud terminlarga tegilmagan, lekin ular qamrab olgan tushuncha doirasi kengaytirilgan, toraytirilgan yoki oʻzgartirilgan holda, bu terminlarga qoʻshimcha maʼno berilib, Islomning maqsad va tamoyillari amalga oshirilgan. Yangi paydo boʻlgan tushunchalar uchun esa, tilning imkoniyatlariga koʻra yangi terminlar yaratilgan.

Lekin Sunnat bu masalada toʻliq bir bogʻliqlik his qilmaganligi sababli, baʼzan uning tashqarisiga chiqishi ham kuzatiladi. Masalan, Qurʼon lugʻatda “niyat qilish, maqsad qilish, yoʻnalish” maʼnolarini anglatadigan “تيمم” [tayammum] soʻzini (tahoratsizlikni bartaraf qilish maqsadida) pok tuproqqa yoʻnalish (tuproqni qasd qilish) (buyruq shaklida “تيمموا” [tayammamû]) faqat lugʻaviy maʼnoda ishlatgan boʻlsa, Sunnat uning qanday bajarilishini izohlab bergan va shu paytda Qurʼonga muvofiq ravishda “تيمم” [tayammum] soʻzini masdar shaklida termin sifatida ishlatgan (Koneviy, 1987, s. 57). Ushbu termin shunchalik keng tarqalgan ediki, endi “تيمم” [tayammum] deyilganda yuz va qoʻllarni masʼh qilish anglashiladi. Boshqa tomondan, Qurʼon namozga chaqirish masalasida “نداء” [nido] lafzini lugʻaviy maʼnoda ishlatgan boʻlsa-da, Sunnat undan mustaqil ravishda “إعلام” [iʼlaam] (bildirish) maʼnosini anglatadigan “أذان” [azon] soʻzini termin sifatida qoʻllagan. Termin ishlatilmagan tushunchalarga kelsak, agar Qurʼonda oʻsha tushuncha uchun mos soʻz boʻlmasa, unga mos bir soʻz Sunnat tomonidan tashqaridan olinib, termin sifatida qoʻllangan. Masalan, tahoratni bayon qiluvchi oyatda amal izohlangan, lekin ushbu amal nomi zikr qilinmagan. Sunnat esa bu poklanishning goʻzalligi va porlashini nazarda tutib “وضوء” [vuzuʼ] terminini qoʻllagan.

Ayrim tadqiqotchilar izlanish bilan birinchi paydo bo'lgan temrlarni ham aniqlashga harakat qilgan masalan Dr O'smon Ibrohim aytadi: "Islom bilan birinchi marta ishlatilgan terminlarga misol sifatida "zakot" va "tayammum" terminlari keltirilishi mumkin".

Xulosa qilib aytganda, Qur'on xoh, avval ishlatilgan bir terminni olgan bo'lsin yoki o'zi yaratgan bo'lsin, Islom huquqiga oid katta miqdorda terminlarni taqdim qilgan. Dr. O'sman Shahin aytadi: "Masalan, "al-Mu'jam al-Mufahras" ustida olib borgan tadqiqimizda Islom huquqiga oid 400 dan ortiq terminni ko'rdik".

Sunnatga kelsak, u Qur'onni sharhlash (bayon) vazifasiga ega bo'lgani va amaliy hayotning deyarli barcha jabhalarini qamrab olgani uchun, islom huquqi terminlogiyasiga yanada ko'proq terminlar kiritgan. Bu davrda qo'llanilgan tushunchalarning ta'riflanishi masalasiga kelsak, Qur'on o'zi qo'llagan huquqiy terminlarga oid hech qanday ta'rif (izoh) bermagani kuzatiladi.

Shu nuqtai nazardan, sunnat ba'zan zakotda bo'lgani kabi tafsilot berish shaklida va namoz va hajda bo'lgani kabi tatbiq shaklida ham terminlarni bayon qilgan. Boshqa tomondan, sunnat ham ba'zi terminlarni ixcham, deyarli texnik jihatdan belgilab bergan.

Xulosa shuki, vahiy davrida "mavhum-yopiq so'zlar" kerak bo'lganicha tushuntirildi, qolganlari esa Sellam Medkur aytganidek, odamlarning urf-odatlarini, islom dinining asosiy tamoyillari hamda omma manfaatlarini hisobga olgan holda vakolatli/malakali kishilar tomonidan vaziyet va ehtiyojga qarab tushuntirish uchun yopiq qoldirildi.

Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi va sallamdan keyin sahobalar va tobeinlar o'z qo'l ostidagilar kerak bo'lganda yangi terminlar ishlab chiqarishni davom ettirdilar. Ayniqsa, Umar ibn Xattob davrida islom yurtlari kengayishi bilan vujudga kelgan davlatni qayta qurish zaruratiga qarab, huquqiy amaliyotlar andozasi atrofdagi mamlakatlardan olib kelindi, ularning termin va tushunchalari juda oz o'zgarish bilan arab tiliga tarjima qilindi.

Boshqa tomondan, bu davrda sahobalarning vahiyini keyingi avlodlarga yetkazuvchi ko'priq vazifasini bajarishi sababli, ular uchun Qur'on va sunnatda keltirilgan termin va tushunchalarni izohlash alohida ahamiyat kasb etgan. Bu munosabat bilan, Hazrat Umarning "شراب" [sharob] — aqlni to'sadigan narsadir", Jobirning halol bo'lgan "عمري" ['umro] haqida "bu mol seni va sendan keyingilarni (deya tuzilgan bitim)" deb aytgan gaplari, xalq orasida keng tarqalgan "عمري" ['umro] haqida esa "yashagan vaqtim mol-mulkim senikidir (deya tuzilgan bitim)" hamda ribo mavzusiga kiruvchi savdo turlari bo'lgan "مزابنة" [muzaabana] haqida "pishib yetilmagan (xavfdan qutulmagan) mevalarni (tayyor) xurmo evaziga sotishdir" degan ifodalari texnik jihatdan ta'rif sifatida baholanishi mumkin.

Sahobalar o'rtasida har bir terminning ta'rifi bo'yicha yakdil qarorga (ijmoga) erishilgani aytish qiyin. Masala "Taloq qilingan ayollar o'z-o'zidan uch "قروء" [quru'] muddat kutadilar"

deb kelgan oyatda “قروء” [quru’] lafzi bunga yaxshi misol bo‘la oladi (Baqara surasi, 228-oyat.). Bu lafzni, to‘rt xalifa boshchiligida Ibn Abbos va Ibn Mas‘ud “hayz” deb talqin qilgan bo‘lsa, Hz. Oisha, Ibn Umar va Zayd ibn Sobit “poklik” deya izoh bergan.

Bu davrda “din va siyosatni bir-biridan ajratish” jarayonini boshlab bergan Muoviyaning “Din ishlaringizni o‘zingiz tartibga soling, siyosatni bizga qo‘ying” degan bayonoti, umuman diniy ilmlar, ayniqsa, usulul fiqhning rivojlanishiga tezlashuvchi ta‘sir ko‘rsatdi. Hamda fiqh va buning tabiiy natijasi o‘laroq islom huquqiy terminologiyasining rivojlanishiga olib keldi.

Sahobalar davrining oxiriga kelib islom huquqi mustaqil bo‘lib, o‘z ulamolari va imomlari bilan o‘z o‘rnini egallay boshlagan, ilmga kelganda o‘ziga xos mavjudlik va alohida sohaga ega bo‘lgan; matnlar (qoidalarni o‘zida jamlagan fiqhiy masalalar) va fiqh so‘zi ishlatilganda, bu matnlardan hukmlarni tushunish qobiliyatiga ega bo‘lish (shar‘iy ahkomlarni tahlil qila olish malakasi) nazarda tutila boshlagan. Mustafu Shihobiyning bu davrga bergan bahosi qiziq: “Roshid xalifalar va umaviylar davrida Qur‘on va sunnatni to‘g‘ri tushunishga katta sa‘y-harakatlar qilindi. Fiqh, hadis va tafsir kabi naql ilmlarning rivojlanishi arab tilining mohiyatidan turli terminlarni ishlab chiqish zaruratini tug‘dirdi. “حج” [Haj], “زكاة” [zakot], “نكاح” [nikoh], “وضوء” [vudu’], “تيمم” [tayammum], “حضانة” [hadonah], “نفقة” [nafaqa], “شفعة” [shuf‘a], “حریم النهر” [harimu’n nahr], “تحجير” [tahjiyr], “مغارة” [mugârasa], “مساقاة” [musâkât], “أرض العشر” [arzu’l-’ushr] va “أرض الخراج” [arzu’l-xaraj] kabi yangi tushuntirilgan yoki (so‘zning asl ma‘nosi o‘zgartirilgan holda) yangidan paydo qilingan terminlar soni yuzlab, hatto mingdan ortig‘i paydo bo‘ldi va ularni alohida so‘zlari, kitoblarda tilga olingan o‘z anglam qatorlari va ta‘riflari bor edi”.

Mujtahid imomlar davri. Bu davr islom huquqiy terminologiyasining chinakam kamolotga erishgan davri edi. Chunki bu davrda islom huquqi o‘zining barcha sub‘ektlari bilan muhokama qilinib, tizimlashtirildi, fiqh metodi ancha kamol topdi. Bu davrda farz, vojib, sunnat, mandub, mustahab, harom, makruh, shart, illat, rukn kabi usulga oid ko‘plab terminlar mazhablar orasida ma‘lum ma‘nolarda – bir xil yoki farqli shaklda qo‘llanila boshlandi. Qur‘on va Sunnatda o‘zining lug‘aviy ma‘nosi bilan qo‘llangan “ijmo” so‘zi fiqh usulining kodifikatsiyasi bilan fan sohasida alohida o‘rin egalladi. Bundan tashqari, bu davrda “حیل” [hiyal] va “مخارج” [maxaarij] terminlari ham paydo bo‘lgan. Bulardan tashqari ba‘zi imomlar ham o‘z terminlarini ishlab chiqqanlar va qo‘llaganlar. Molikning “ijmo qilingan masalalar” iborasida bo‘lganidek, ular o‘z terminlariga ta‘rif ham berganlar (Karaman, Hayreddin, 1989, s. - 200.).

Binobarin, bu davr tushunchalar va ular bilan bog‘liq terminlar bir joyda jamlanmagan tarqoq holda edi. Shofeiyning “istihson” va “istisloh”ga munosabati bunga yaqqol misoldir. Bunday munosabat hatto tomonlarga ushbu ikki dalildan foydalanib, o‘z maqsadlarini ifodalash

uchun texnik ta'riflar qilish zaruratini keltirib chiqardi. Ushbu tajribalarning barchasi tushunchalar, terminlar va ta'riflarning yetilishiga olib keldi. Bu davr tilshunoslari, ayniqsa fiqh, hadis, tafsir va shular kabi naqliy ilmlar uchun termin yaratganlar arab tilini yaxshi bilganliklari uchun terminlarni arab tilining mohiyatiga mos ravishda aniq, to'g'ri va tushunarli qilib yaratdilar. Qolaversa, Quraysh lahjasidan tashqari boshqa barcha arab qabilalarida qo'llanilgan so'zlarning jamlanishi arab tilida termin hosil qilish borasida keng imkoniyatlar yaratdi (Hamaviy, Bayrut 1992, s. 24.).

Boshqa tomondan, bu davrda huquqiy terminlarni aniqlash faqat huquqshunolar bilan cheklanib qolmadi. Masalan Shofeiy zamondoshi adabiyot hamda tilga oid asarlari bilan mashhur bo'lgan Johiz ham o'z asarlarida bir qator texnik ta'riflarni bergan. Masalan, Johizning “(عقل) [aql] — diyatdir, (عاقلة) [aaqila] esa qotilning yaqin va uzoq qarindoshlari hisoblanadi” tarzidagi ta'riflari Islom huquqi bilan ham bog'liq ta'riflar sanaladi. Keyinchalik Ibn Qutayba (vafoti 276/889) “G'arib al-Hadis” asarida, birinchi navbatda, fiqhning asosiy istilohlarini tegishli hadislar bilan birgalikda semantik tahlil qilgan (Hamidulleh, 1992, s.12.).

Abbosiy davrida xorijiy madaniyatlardan tarjima faoliyati ta'sirida, jumladan huquq, tibbiyot, falsafa kabi ilmlardan ko'p terminlar o'tgan, shuning uchun kalom, tasavvuf, fiqh, usulul fiqhga doir minglab terminlar shakllangan.

Bu davr haqida doktor Sinoniy Sinoniy shunday deydi: “Ushbu turli davrlarda, turli yo'llar bilan va ko'p yondashuvlar asosida to'plangan lingvistik materiallar arab lug'atlarining birlamchi yadro-asosi bo'lib xizmat qildi, ulardan eng mashhurlari “Al-Xalil bin Ahmad Al-Farohidiyning “Al-Ayn” kitobi (vaf. 175 hijriy) va Ibn Manzurning (vaf. 711 hijriy) “Lisan al-Arab” asaridir”.

Huquqning to'xtalgan davri, mavjud terminologiyaning yanada aniqroq belgilangan, mazhablar o'rtasidagi farqlarga ham e'tibor qaratilib ta'riflangan, qisqasi, texnik ishlanmalar olib borilgan bir davr bo'lgan. Shu nuqtada Hanafiylardan Alouddin as-Samarqandiyning (vafoti 539/1144) “Tuhfatul-Fuqaho” asari terminologiyani rivojlantirish jihatidan yuqori bir bosqichni ifodalaydi. Huquqning institutsionalizatsiyasi tugallanishi va ijtimoiy hayotning ham to'xtab qolishi yangi terminlar ishlab chiqishni deyarli to'xtatish darajasiga olib kelgan. Shunga qaramay, kamdan-kam hollarda bo'lsa ham, yangi terminlar ishlab chiqilgan.

Ular orasida vakf huquqiga oid va Usmoniylar amaliyotida paydo bo'lgan “إجارتين” [ijaratayn] termini hamda iqtisodiy qisqarishning qarzi hasan institutiga salbiy ta'sirining natijasi sifatida paydo bo'lgan “بيع الوفاء” [bay bil vafô] termini o'sha davrda paydo bo'lgan terminlardir. Boshqa tomondan, ushbu davrda sharh va hashiyaga oid an'analarning paydo bo'lishi bilan mavzularga (masalalar) haddan tashqari chuqur yondashishga harakat qilingan, bu esa asosiy tushunchalardan ko'ra, batafsil tushuncha va terminlarning yaratilishiga olib kelgan.

Ibn Xaldunning (v. 808/1405) aytganiga ko'ra, terminlar yanada ko'paygan va bu ijtihod darajasiga yetishni qiyinlashtiruvchi omillarga qo'shilgan.

Sanoat inqilobidan so'ng boshlangan tezkor rivojlanishlar boshqa dunyo mamlakatlari bilan birga musulmon mamlakatlariga ham ta'sir ko'rsatgan va bu ta'sir hozirgi kunda texnologiya va tibbiyot kabi texnik fanlarda sodir bo'layotgan yutuqlar bilan yanada ortib bormoqda. Natijada har bir sohada son-sanoqsiz yangi tushuncha va termin paydo bo'lmoqda. Tabiiyki, bu tushunchalar huquqqa oid bo'lgan joylarda huquq sohasiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, telefon, internet kabi aloqa vositalarining paydo bo'lishi bilan huquqning "bitim" tushunchasi kengaygan; tibbiyotdagi yangi rivojlanishlar bilan esa a'zolari ko'chirib o'tkazish, sun'iy urug'lantirish, klonlash kabi yangi tushunchalar qo'shildi. Boshqa sohalarda ham yangi tushuncha va terminlar ishlab chiqarish sur'ati ortib bormoqda. Xususan savdo-tijorat fiqhi ko'lamida ham qator yangi tushunchalar paydo bo'ldi, ananaviy shakllanib kelayotganlarining mazmuni strukturaviy jihatda o'zgarishlarga uchradi. Masalan, qarz – nasiya savdosi misolida ko'rsak nasiya "ma'lum bir muddatga tovar ayriboshlash"ni ifoda qilgan bo'lsa bugungi kunda nasiyaning qator "تقسیت" [taqsit], "تنجیم" [tanjim] kabi shakllari rivojlandi. Qolaversa "murobaha savdosida ijra, nasiya" kabi bitimlar qorishtirmasidan bitimlar ichiga kirishib bitishuv shaklidagi tushunchalar paydo bo'ldi va o'ziga xos terminlariga egalik qilmoqda.

Kitoblar ta'lifi davri. Terminologiya adabiyotining tarixiy jarayoniga nazar soladigan bo'lsak, ijodiy asarlar boshlangan mujtahidlar davridan boshlab, usul yoki furu' sohasida bo'lishidan qat'iy nazar, terminologiya zarur bo'lgan joylarda o'sha asarlarning kirish qismida yoki bevosita kerakli joyda ta'riflanar edi. Usul mavzusida ilk bor Ibn Hazm "al-Ihkam" asarining kirish qismida terminlarni tizimli ravishda ko'rib chiqdi. Biroq huquq terminologiyasi bo'yicha birinchi mustaqil asarlar Hijriy IV asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Ulardan furu' sohasida yozilgan birinchi asar Abu Mansur Muhammad ibn Ahmad al-Azharî al-Haraviy (v. 370/980)ning "az-Zohir" asaridir. Muallif ushbu asarda Shofi'iy shogirdi Muzaniy (v. 264/877)ning al-Muxtasar asarida uchraydigan notanish so'zlarni asl kitob tartibini buzmasdan, o'sha bo'lim sarlavhasi ostida izohlab bergan. Usul sohasida yozilgan birinchi asar esa Ibn Furakning (v. 406/1015) "Kitobu'l-hudud fi'l-usul" nomli asaridir. Xuddi shu davrda al-Xorazmiy (v. 387/997) Islomiy ilmlar uchun yozgan "Mafatihu'l-ulum" asarida usul va furu' terminlarini birgalikda ko'rib chiqadigan bo'lim ochdi. Shu paytdan boshlab huquq terminologiyasi adabiyoti ishlari lug'at tadqiqotlaridagi rivojlanishlarga parallel ravishda ortib bordi.

Nasafiy (vaf. 538/1143) o'zining "Tilbetu't-Talaba" asarini fiqh boblari bo'yicha xuddi shunday tuzgan bo'lsa, VII asrda Abul-Fath Nosir ibn Abul-Makarim al-Mutarriziy (vaf.

610/1213) o'zining el-Mug'rib fi Tartibi'l-Mu'rib nomli asarini o'sha davrdagi lug'at tartibiga ko'ra alifbo tartibida shakllantirgan. Fiqh boblariga ko'ra tartiblangan asarlarda terminlar mavzu yaxlitligi doirasida yaxshiroq tushunilgan bo'lsa-da, bir-biri bilan bog'liq bo'lgan terminlar – bu asosiy terminlar ham deyishimiz mumkin – aniqroq tushuniladi, bugungi kunda alifbo tartibidagi asarlarga ko'proq afzallik beriladi, chunki ular so'zlarni topishda amaliy qulaydir. Bugungi kunda ushbu amaliylik tufayli alifbo tartibi odatda afzal ko'riladi. Shu sababli mumtoz adabiyot ham alifbo tartibida qayta tuzila boshlandi. Biroq, har bir davrni g o'z mavzulariga ko'ra tuzilgan adabiyotlar hanuz mavjud bo'lib kelmoqda.

Islom huquqiy terminologiyasiga oid adabiyotlarni ikki guruhga bo'lish mumkin: usul yoki furu terminlarini tushuntirish uchun tuzilgan fiqh terminlari (istilohot-i fikhiyya) va bilvosita foydalanish mumkin bo'lgan adabiyotlar. Bu borada biz aniqlashga muvaffaq bo'lgan asarlar, mumtoz asarlar mualliflari yashagan sanaga ko'ra, bugungi kunda yozilganlari esa nashr etilgan yiliga qarab sanab o'tiladi.

Islom huquqi terminologiyasini to'g'ridan-to'g'ri tadqiq qilgan asarlar:

Islom huquq terminologiyasini to'g'ridan-to'g'ri o'rgangan adabiyotlar umumiy usul va furu' terminlarini mazhab farqini inobatga olmasdan, yoki faqat fiqh usuli terminlarini, yoki mazhab vakillarining o'z terminlarini o'rganishga qaratilgan asarlardan iboratdir.

Fiqh terminologiyasiga bilvosita murojaat qilib yozilgan adabiyotlar:

Bu guruhga kiruvchi lug'atlar aslida islomiy ilmlar yoki xususan tafsir, hadis va hokozolar haqidadir. Ular fanlarning terminlari bilan shug'ullanadilar. Qolaversa, bu asarlar fiqh va boshqa fan bilan uyg'un keluvchi so'zlarni lug'aviy va yoki terminologiya jihatidan yoritadi. Bu guruhdagi asarlar orasida faqat ko'p qo'llaniladiganlari va biz eslatib o'tishni zarur deb bilgan ayrim asarlar keltiriladi.

Islom ensiklopediyalari — bu Islom dini, madaniyati, tarixi, falsafasi va ijtimoiy hayotiga oid keng qamrovli bilimlarni o'zida mujassam etgan ensiklopedik manbalardir. Ular Islom olami tarixi davomida boy madaniy va ilmiy merosni tizimlashtirish, saqlash va yetkazishda muhim o'rin tutgan. Islom ensiklopediyalari asosan tarix, huquq, falsafa, ilohiyot, til va adabiyot kabi ko'plab fan sohalarini qamrab oladi va bu orqali Islom dunyosining xilma-xil madaniy va ilmiy merosi haqida to'liqroq tasavvur berishga intiladi.

Xulosa. Islom huquqi terminologiyasi bugungi kunimizga qadar, turli bosqichlarni – vahiy, sahobalar davri, fiqh asarlari yozilish davri, umumiy tilshunoslik lug'atlari davri, xossatan faqat fiqh mavzulariga tayangan asarlar, insiklopediyalar davri, undan keyingi hozirgi 20-21-asrda fiqh institutlari terminologiyasiga bag'ishlangan asarlar paydo bo'ldi.

Islom huquqi terminologiyasining shakllanishi va taraqqiyotini xronologik jihatdan o'rganish, nafaqat fiqhiy atamalar tarixiy dinamikasini yoritadi, balki ularning zamonaviy

huquqiy nutqda qanday aks etishini tushunishga ham xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, dastlabki davrlarda fiqhiy istilohlar Qur'on va hadis asosida tabiiy ravishda paydo bo'lgan bo'lsa, keyinchalik mazhablar shakllangach, terminologiya ancha tizimlashtirilgan va maktablararo tafovutlar paydo bo'lgan.

Boshqa tomondan, istilohlar o'z davrining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlariga mos ravishda o'zgarib, boyib borgan. Ayniqsa, tijorat va muomalot bilan bog'liq atamalarning tafsili va tahlili, musulmon jamiyatlarida iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Shuningdek, Islom huquqiy istilohlarining rivojlanish bosqichlari ulamolar o'rtasida ilmiy uzviylik va tarjima madaniyatining yuqori darajada bo'lganini tasdiqlaydi. Bugungi kunda esa, bu terminologik merosni zamonaviy huquqiy tahlil va ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq holda qayta ko'rib chiqish va ilmiy asosda rivojlantirish dolzarb vazifadir.

Mazkur maqola ushbu jarayonning ayrim bosqichlarini yoritish bilan birga, kelajakdagi tadqiqotlar uchun asos bo'la oladi, jumladan, atamalarni ijtihodiy asosda qayta talqin qilish, ularning kontekstual ahamiyatini aniqlash va huquqiy tafakkur tarixiga yangicha yondashuvlarni shakllantirish zaruratini ko'rsatib beradi.

References:

1. Şahin, O. (2009). The Formation of Islamic Legal Terminology and Related Literature. İslami hukuk terminolojisinin oluşumu ve ilgili literatür. – İstanbul: İslam Hukuku Araştırmaları Dergisi, 13. – p. 136. (in Turkish)
2. Guiraud, P. (1999). Semantics. Anlambilim. Trans. Berke Vardar. – İstanbul. – p. 15. (in Turkish)
3. Neseî, (1893). A Student's Request on Legal Terminologies. Tilbetü't-Talebe fi'l-İstîlâhâti'l-Fıkhîyye. – İstanbul: Matbaa-i Amire. – p. 2. (in Turkish)
4. Karaman, H. (1989). History of Islamic Law. İslam Hukuk Tarihi. – İstanbul: Nesil Yayınları. – pp. 52–53. (in Turkish)
5. See also: Köprülü, F. (1983). İslam ve Türk Hukuk Tarihi. – İstanbul. – p. 22–23. (in Turkish)
6. Hamevi, Ü. (1992). The Theory of Istihsan. Nazariyyetü'l-İstihsân. – Beirut: Dar al-Khayr. – p. 24. (in Arabic)
7. Al-Farahidi, A. A., Makhzumi, M. (Ed.), & Samarrai, I. (Ed.). (1980–1985). The Book of Al-'Ayn. Kitāb al-'Ayn. – Baghdad: Wizarat al-Thaqafah wa-al-'Ilam. (in Arabic)
8. Al-Hamzawy, M. R. (1986). The Arabic Language and Modernity. Al-Lughā al-'Arabīyya wa al-Ḥadātha. – Beirut: Dar al-Gharb al-Islami. (2nd ed.). (in Arabic)

9. Al-Salih, S. (1968). *Studies in the Jurisprudence of Language. Dirasat fi Fiqh al-Lugha.* – Lebanon: Dar al-‘Ilm. (3rd ed.). (in Arabic)
10. Sibawayh, A. U., Harun, A. M. (Ed.). (2004). *The Book. Al-Kitab.* – Cairo: Maktabat al-Khanji. (5th ed.). (in Arabic)
11. Al-Jawhari, I. H., ‘Attar, A. A. (Ed.). (n.d.). *The Correct Language: Taj al-Lugha. Al-Sihah (Taj al-Lugha wa-Sihah al-‘Arabiyya).* – Cairo: Dar al-Kitab al-Arabi. (in Arabic)
12. Stetkevych, J. (1970). *The Modern Arabic Literary Language.* – Chicago: University of Chicago Press.
13. Ibn Jinni, A. U., Al-Najjar, M. A. (Ed.). (n.d.). *The Characteristics. Al-Khasa'is.* – Beirut: Dar al-Huda. Vol. 1. (in Arabic)
14. Baker, M. (1987). *Review of Methods Used for Coining New Terms in Arabic.* *Meta*, 32(2), 186–188.
15. Karam, R. A. (2009). *Word-Formation Structure of Verb-Based Zoomorphisms in Languages of Different Types. Slovoobrazovatel'naya struktura zookompozitov s glagolnoi osnovoi v yazykakh razlichnykh tipov.* *Proceedings of Voronezh State University. Linguistics and Intercultural Communication*, 2, 105–109. (in Russian)
16. Al-Foadi, R. A. (2014). *One Key to the Descriptive World of Arabic: Flexion and Its Basic Indicators. Odin klyuch ot dveri v deskrayniy mir arabskogo yazyka – fleksiya: osnovnyia pokazateli.* (in Russian)
17. Begmatova, B. (2009). *Lexical and Terminological Meanings of Terms in Islamic Law. Islom huquqiga oid terminlarning lug‘aviy va istilohiy ma’nolari.* In *Sharqshunoslik masalalari ilmiy maqolalar to‘plami.* – Tashkent. – pp. 51–52. (in Uzbek)